

IMO- – ISHORA, DAKTILOLOGIYA NUTQI- KAR BOLALAR

NUTQINING ALOHIDA SHAKLI

Yembergenov Dauran Tileubergenovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika va inklyuziv ta`lim fakulteti

Surdopedagogika va inklyuziv ta`lim kafedrası

Daktilologiya va imo-ishora nutqi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada imo- ishora, daktilologiya nutqi - kar bolalar nutqining alohida shakli sifatida mazmuni yoritiladi. Imo- – ishora, daktilologiya nutqi masalasiga oid ilmiy qarashlar tahlil qilinadi.

Tayanch soʻzlar: Daktilologiya nutqi, surdopedagogika, boʻlajak surdopedagoglar, imo-ishora nutqi, kar bolalar, nutqiy muloqot, mimika, mikrosotsium, kar insonlar Daktilologiya - kar va zaif eshituvchi bolalar nutqining alohida shakli. Xarakteriga koʻra u mimika (imo – ishora) nutqiga qaraganda lisoniy nutqqa yaqin turadi. U koʻp jihatdan yozma nutqni eslatadi. biroq uning realizatsiya vositasi grafik belgilar – harflar emas, balki qoʻllar, barmoq harakatlari sanaladi. Alifbodagi har bir harf oʻzining maʼlum ifodasiga ega. Barcha daktil belgilarni shartli ravishda uch guruhga boʻlish mumkin: chizga harflar (z, d, b harflarini ifodalaydigan belgilar), ifoda harflar (o, l, m t harflari belgisi) va shartli harflar (v, j, ya). Daktil nutq lisoniy nutqning barcha qoidalari boʻyicha tuziladi va uni faqat lisoniy nutqqa ega boʻlgan kar bolagina mukammal oʻzlashtirishi mumkin. Toʻgʻri, maktabgacha yosh davrida hali bola savod chiqarmasidan oldin ham daktilologiyadan nutqni shakllantirishda foydalanishadi. Tadqiqotlar daktilologiya bolada lisoniy nutqni shakllantirishda jiddiy yordamchi vosita boʻlishi mumkinligini koʻrsatadi (P.D.Korsunskaya, N.A.Moreva). Ye.N.Marsinovskaya bu nutq shaklining qoʻyidagi xususiyatlarini koʻrsatadi [2,34].

Eshitadigan bolalarda daktillash surʼati ogʻzaki nutq surʼatiga qaraganda 2,5 barobar sekinroq. Kar bolalarda esa daktillash va ogʻzaki nutq surʼati deyarli bir xil. Biroq baʼzida daktillash ogʻzaki nutqdan oʻzib ketishi mumkin. Daktilologiya ogʻzaki vaziyatli nutqni bir muncha eslatib yuboradi, suhbatda soʻzlarning daktil ifodalari qisqartiriladi. LyuA.Novikova va Ye.N.Marsinovskaya elektrofiziologik metodlar

yordamida o'tkazgan tadqiqotlarda daktilologiya og'zaki nutq kabi kinestetik sezgilar asosida qurilishi, fikrlash jarayonida kar bolalarda impulsar nafaqat talaffuz apparatida, balki qo'l, barmoq mushaklarida ham yuzaga kelgani aniqlangan. Biroq talaffuz apparatidagi nutqiy kinesteziyalar qo'l kinesteziyasidan mustahkamroq ekani hali yana tekshirilishi kerak, fikrimizcha. amaliyot esa buning aksini ko'rsatmoqda. Daktilologiyani egallagan o'kuvchilar so'zning tovush tarkibini yaxshiroq o'zlashtiradi[4,94]. Ularda so'zning daktil va tovush obrazi o'rtasida shartli aloqalar shakllanadi. Biroq, Ye.N.Marsinovskaya ta'kidlashicha, so'zning talaffuzi bilan yozilishi farq qiladigan holatlarda daktilologiya nutqning tovush tarkibini o'zlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Daktilologiya bilan yozma nutq munosabati murakkab. S.A.Zikov va uning rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda bu borada qiziqarli material to'plangan. Eshitadigan bola savod o'zlashtirishning boshlang'ich bosqichida so'zlarni yozishda o'zining akustik va harakatli nutqiy obrazlariga tayanadi. Bola so'zni yozishdar oldin ichida yo ovoz chiqarib aytganini ko'p ko'rish mumkin. Og'zaki nutqni egallamagan kar bolalar yozuvni o'zlashtirishning boshlang'ich bosqichida daktilologiyaga tayanadi. So'zni yozishdan oldin uni daktillaydi. Keymeriq bu bir paytning o'zida amalga oshiriladi. Lisoniy nutqni egallagani sari daktil kinestetiyalar siqib chiqariladi va artikulyator (talaffuz) kinesteziyalariga almashtiriladi. Bola xuddi eshitadigan bola kabi so'zni talaffuz qiladi, keyin yozadi(13).

Daktilologiya atrofidagi karlarning labidan o'qishda ham muhim yordamchi vosita sanaladi. Tilimizdagi ayrim tovushlarni (masalan, g- k- x) labdan o'qishda daktilologiya yordmiga murojaat qilinadi. Labdan o'qish jarayonida daktilologiyadan foydalanishning maxsus metodikasini ishlab chiqishga urinishlar ham qilingan. Bu labdan o'qishning manoral sistemasida o'z aksini topgan. Eshitadigan bolaning og'zaki nutqi kabi (mimika) imo – ishora nutqi muloqot ehtiyojidan kelib chiqadi.

Bola dastlab foydalanadigan imo – ishoralar juda sodda, tabiiy (masalan, u nimanidir hohlasa, predmetga ishoa qiladi). Asta – sekin ular murakkablashadi, muloqot vazifasini bajara boylaydi, shartli xarakter kasb etadi. Biroq eshitish sezgilari asosida shakllanadigan og'zaki nutqdan farqli o'laroq, mimika – ishora nutqi boshqa natomik – fiziologik asosda - ko'rish va harakat sezgilari asosida yuzaga keladi. So'zning realizatsiya vositasi uning tarixan shakllangan va barqaror tovush yoki grafik qobig'i bo'lsa, mimik belgini realizatsiyalash vositasi qo'l harakati va



yuzning tegishli mimik ifodasi sanaladi. Bosh miya qobig'iharakat uchastkalarining mimika – ishora nutqi shakllanishi uchun ahamiyati afaziyalarda nafaqat nutqiy, balki harakat funksiyalari ham buzilishi, jumladan ba'zan mimika – ishora va daktil nutq buzilishi ro'y berishi mumkinligi bilan o'z tasdig'ini topadi.

Ma'lumki, karlar mimika yordamida murojaat qilish va o'zaro tushunishga erisha olishadi. Mimika – ishora nutqi ular uchun atrof olamni bilishga ko'maklashuvchi vosita hamdir. Masalan, kar – soqov ota – ona oilasida kar bola asosan mimika vositasida muloqot qilib rivojlanadi, biroo'q shunga qaramay, uning intellektual rivojlanish darajasi anchagina yuqori bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, mimika karlar uchun muloqot funksiyasini bajarishini inkor etish noto'g'ri bo'ladi. Bu jihatdan u odatiy nutq bilan ma'lum o'xshashlikka ega. Biroq mimika va tilning bu funksiyani realizatsiyalashida jiddiy farqlarni kuzatish mumkin. Mimika – ishora nutqi faqat insonlarning juda cheklangan doirasi – kar-soqovlar uchun muloqot vazifasini bajarishi mumkin. Og'zaki nutqni egallamagan, mimikani bilmaydigan boshqa kishilar bilan erkin muloqot qila olmaydi. Til esa umumxalq muloqot vositasi sanaladi. Til muloqot funksiyasini bajargani uchungina fikrlash quroli bo'lib xizmat qila oladi. U muloqot vositasi bo'lmas ekan, o'zining ikkinchi funksiyasini ham yo'qotadi. Ko'plab tadqiqotchilar mimik belgilarni tasniflashga uringan (N.G.Morozova, R.M.Boskis, L.V.Zankov, I.M.Solovev, G.L.Zayseva, N.F.Slezina, A.G.Gerankina). Ularning tadqiqotlari natijalariga to'xtalib, mimik belgilarning quyidagi tur va guruhlarini ajratish mumkin:

1. Ko'rish sezgilariga asoslangan belgilar:
 - a) ko'rsatish mimik belgilar (burun, ko'z, stol, shkaf, u);
 - b) predmet chizgisini (konturini) beradigan yoki uning xarakterli belgisini ta'kidlaydigan belgilar (yulduz, oy, g'oz, matros);
 - v) harakatni qisman yoki to'liq imitatsiyalaydigan belgilar 9yurmoq, yemoq, o'qimoq).
2. His qilish sezgilariga asoslangan belgilar (tosh, yengil).
3. Hid bilish sezgilariga asoslangan belgilar (hid, novshatil).
4. Teri sezgilariga asoslangan belgilar (issiq, sovuq, tikan).
5. Ta'm bilish sezgilariga asoslangan belgilar (shirin, sho'r, nordon, asal).
6. Vibratsiya sezgilariga asoslangan belgilar (chaqmoq, portlash, silkinish).
7. Organik sezgilariga asoslangan belgilar (ochlik, chanqoqlik, yorug'lik).



8. Emotsional holatlarni ifodalaydigan belgilar (xafalik, muhabbat, quvonch, nafrat).

9. Mimik – daktilologik belgilar (a'lo, jarima, qo'pol).

10. Tabiiy belgilar (yo'q, jim, qila olmayman).

11. Kelib chiqishini aniqlash qiyin bo'lgan sun'iy belgilar (sariq, bu va sh.k.).

12. Sonlarni ifodalaydigan belgilar.

13. Tarjima mimik belgilar, ular kar bolalar ta'lim jarayonida egallagan yangi so'zlarning go'yo aynan tarjmasi sanaladi (ko'zbo'yamachilik, promfinplan).

Mimik belgilar tarkibi beqaror va turlicha. Karlar tomondan yangi tushunchalar o'zlashtirilgani va tilda yangi so'zlar paydo bo'lgani sari yangi mimik belgilar ham paydo bo'laveradi (atom bombasi, raketa, kompyuter).

Ayrim mimik belgilar, bir tomondan, konkretlik va ko'rgazmalilik, boshqa tomondan esa, diffuzlak va differensiatsiyalanmaganlik bilan xarakterlanadi (masalan, uy belgisi qurilmalarni – kulba, ombor, katta ko'p qavatli uyni ifodalash uchun ishlatilishi mumkin)

Mimik belgilar xakteri kar bolalarni lisoniy nutqqa o'rgatish jarayonida jiddiy o'zgarishlarga uchraydi – ularning ma'nosi aniqlashtiriladi, yanada differensiatsiyalanadi. Dastlab bola hamma qurilmalarni uy, avtomobillarning hammasini mashina belgisi bilan ifodalasa, keyinchalik lisoniy nutq ta'sirida yangi alohida differensiatsiyalangan belgilar (katta uy, kichi kuy, bir qavatli uy), shuningdek yengil va yuk avtomobilini ifodalash uchun alohida belgilar paydo bo'ladi. Mimik belgilar konkretligi va yetarlicha umumlashtirilmagani sababli mavhum tushunchalarni ifodalaydiganlari soni u qadar ko'p emas. Bu holda ba'zida mimik belgilar kompleksidan foydalanishga to'g'ri keladi.

Har bir mimik belgi qandaydir ob'ektiv reallik, qandaydir predmet, yorqin ifodalangan belgisi harakatni ifodalagan sababli ko'plab belgilar barqaror ma'nolarini saqlab qoladi va karlarning turli bir - biridan uzoq bo'lgan guruhlar uchun bir xil sanaladi. Bu avvalo ko'rsatish, plastik, imitatsiyalaydigan belgilarga taalluqli (uy, qush, kitob, ishlamoq, yemoq). Shu bilan birga ayrim mimik belgilar avtonom bo'lib, turli jamoalarda turlicha tushunchalarni ifoda etadi. Masalan, predmet yoki harakat qator raqobatdosh belgilarga ega bo'lsa, ayrim hollarda bitta belgi, boshqa hollarda boshqasi mimik belgi uchu nasos bo'la oladi.

Emotsional ottenka mimik belgida soʻzga qaraganda yorqinroq ifodalanadi. Mimikada predmet, belgi va unga munosabatni ifodalash goʻyo uygʻunlashib ketadi va bir paytning oʻzida ifodalanadi.

Tilning yana bir muhim belgisi uning grammatik qurilishi sanaladi.

Mimikkani «agrammatik» deb hisoblashadi. Biroq bu mimika xaotik koʻrinishga ega degani emas. Eʼtibor berib qaralsa, bu oʻrinda ham gap qoʻrishning maʼlum tendensiya va qoidalari koʻzga tashlanadi. Mimik belgining shakli esa xatto boshqalari bilan birikkanda ham oʻzgarmaydi. Mimik bnlgi soʻz bilan qiyoslanganda grammatik amorfdir, biroq mimk gap qurilishida u ayrim boʻlaklar, soʻz turkumlarining joylashishida maʼlum tendensiya kuzatiladi.

Sodda yigʻiq gaplarni qiyoslaganda mimik va lisoniy nutqda farq kuzatilmaydi. Koʻp boʻlakli gaplarda esa farqlar kuzatiladi. Mimikada soʻz tartibi lisoniy nutqdagidan farq qilishi mumkin.

mimikada hodisalarning sabab bogʻliqliklari va izchilligini ifodalash ham oʻzaga xos. Goʻyo koʻzgudagi ketma-ketlikka rioya qilinadi, avval sabab keyin oqibat koʻrsatiladi. Mimika – ishora nutqida ergashgan qoʻshma gaplar kam qoʻllanadi. Yordamchi soʻzlar deyarli qoʻllanmaydi. Lisoniy nutqni oʻzlashtirish mimik ishora gap qurilishiga katta taʼsir koʻrsatadi. Mimika ham lisoniy nutq shakllanishiga – umuman salbiy – taʼsir oʻtkazadi. baʼzida ogʻzaki yoki yozma nutqda gap mimik – ishora nutqidagi kamchiliklarni saqlab qoladi. Shunday qilib karlarning mimika – ishora nutqi lisoniy nutqdan tubdan farq qiladi. Bu farqlar funksiyalar, kabi til va mimikaning tarkibiy qismlariga ham oid. pedagogik jarayonda mimikadan foydalanishga yoʻl qoʻyiladi. Biroq maktabning vazifasi bolalarda lisoniy nutqni shakllantirish ekanini yoddan chiqarmmaslik lozim boʻladi.

Adabiyotlar

1. Zayseva G.L. Daktilologiya. Jestovaya rech. - M.: Vldos, 2021.
2. Ivanyusheva N. V. Mimiko-jestikulyatsionnaya rech — Kiyev.: Reklama, 2008.
3. Zayseva G. L. Zamonaviy imo-ishora tilini oʻqitish muammolari boʻyicha L. S. Vigotskiy bilan muloqot // Defektologiya. — 1998. - № 2 — .38-41 s.
4. Pauline Davis, LaniFlorani, Judith Aron Rubin. Teaching Strategies and Approaches for Pupils with Special Educational Needs: A Scoping Study, Child Art Therapy 25th Anniversary Edition Research America-2010.